

Assalomu alaykum

Ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e‘lon qilish Xorazm viloyati statistika boshqarmasi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi o‘z faoliyatini har yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari Dasturiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish Dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

Viloyat statistika boshqarmasi tomonidan “2023-yil uchun statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi”ning ijrosi yuzasidan joriy yilning 11 oyida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Statistika idoralari tomonidan Davlat statistika Dasturining ijrosini ta’minlash maqsadida yil mobaynida 98 turdagi davlat statistika hisobotlari va 30 turdagi kuzatuv va so‘rovnomalar o‘tkaziladi.

Xususan, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari davomida kuzatuv uchun tanlab olingan joylar va subyektlar bo‘yicha, belgilangan muddatlarda, quyidagi tanlanma kuzatuvlar to‘liq va sifatli o‘tkazildi:

- 1003 ta uy xo‘jaliklarida aholi turmush darajasi, ichki turizm va aholining jismoniy faolligi, daromadlar va xarajatlar tarkibini aniqlashga qaratilgan tanlanma kuzatuvlari to‘liq *elektron qurilma(planshet) yordamida o‘tkazildi.*

- 10 931 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy holatini aniqlashga qaratilgan choraklik tanlanma kuzatuvlari o‘tkazildi.

- 10 350 ta iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha norasmiy sektor, yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvini tashkil etildi.

- shuningdek, 5 848 ta Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan boshqa kuzatuv so‘rovnomalari o‘tkazildi.

2023-yilning o'tgan davri davomida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlardan 58 253 ta statistika hisobotlari muddatlarida qabul qilindi.

Statistik axborotlarning ishonchliligi, qulayligi, xolisligi va ochiqligini ta'minlash maqsadida viloyat statistika boshqarmasi rasmiy veb saytining rasmiy statistika sahifasida viloyatning barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar joylashtirilgan va doimiy ravishda yangilanib borilmoqda.

Xususan, 2023-yilning 11 oyi yakunlarida Davlat statistika hisobotlari va kuzatuvlari natijasida olingan statistik ma'lumotlar umumlashtirilib, viloyatning rivojlanishini, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini to'liq aks ettiruvchi kompleks statistik va tahliliy axborotlarni, jumladan, 84 ta press-reviz va 250 dan ortiq ochiq ma'lumotlar boshqarma rasmiy veb saytining ochiq ma'lumotlar sahifasiga joylashtirilib, yangilanib borilmoqda.

2023-yilning shu davrigacha hududiy boshqarmaga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yozma va og'zaki qilingan murojaatlari umumiy hisobda 107 tani tashkil qilgan. Shundan, jismoniy shaxslarning murojaati 9 tani, yuridik shaxs maqomiga ega turli korxonalar va tashkilotlar tomonidan qilingan murojaatlar soni 98 tani tashkil etdi. Murojaatlarda ko'tarilgan masalalar yuzasidan murojaatchiga tegishli va to'laqon javoblar yozma shaklda yo'naltirilgan. Murojaatlar statistikasi to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam ravishda xorazm.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilib boriladi.

E'tiborlaringiz uchun rahmat !

Nazokat Samandarova